

**ORIENTAL JOURNAL OF PHILOLOGY**

journal homepage:

<http://www.supportscience.uz/index.php/ojp/about>**COMPARATIVE-TYPOLOGICAL ANALYSIS OF DOMINANT FIGURES IN BRITISH AND UZBEK MYTHOLOGY****Bakhodir Kholikov***PhD, Associate Professor of the Department of Comparative Literature**Rector of Samarkand State Institute of Foreign Languages**E-mail: xoliqov-b@samdchti.uz**Samarkand, Uzbekistan***ABOUT ARTICLE****Key words:** mythology, dominant characters, deities, spiritual connections, world tree.**Received:** 23.12.25**Accepted:** 24.12.25**Published:** 25.12.25**Abstract:** This article examines for the first time the mythological views of ancient Uzbek and English peoples regarding dominant images and their artistic interpretation in myths and works of art. The paper examines the origin, sources, and evolution of dominant mythological images, and identifies similarities and differences between Uzbek and English sources.**BRITANIYA VA O'ZBEK MIFOLOGIYASIDAGI DOMINANT PERSONAJLARNING QIYOSIY-TIPOLOGIK TAHLILI****Baxodir Xolikov***PhD, Qiyosiy adabiyotshunoslik kafedrasi dotsenti,**Samarqand davlat chet tillar instituti rektori,**xoliqov-b@samdchti.uz**Samarqand, O'zbekiston***MAQOLA HAQIDA****Kalit so'zlar:** mifologiya, dominant personajlar, ma'budlar, ma'naviy aloqalar, dunyo daraxti.**Annotatsiya:** Maqolada qadimgi o'zbek va ingliz xalqlarining dominant obrazlar bilan bogliq mifologik qarashlari va bu tushunchalarning afsona hamda badiiy asar matnlaridagi badiiy talqinlari birinchi marta qiyosiy tahlil doirasiga tortildi. Ishda dominant mifologik obrazlarning kelib chiqishi, manbalari, evolyutsiyasi, o'zbek va ingliz manbalaridagi o'zaro o'xshashlik va farqlarning aniqlanishi qiyosiy jihatdan o'rganildi.

СРАВНИТЕЛЬНО-ТИПОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ДОМИНИРУЮЩИХ ПЕРСОНАЖЕЙ В БРИТАНСКОЙ И УЗБЕКСКОЙ МИФОЛОГИИ

Баходир Холиков

PhD, доцент кафедры сравнительного литературоведения

ректор Самаркандского государственного института иностранных языков

E-mail: xoliqov-b@samdchti.uz

Самарканд, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: доминантные персонажи, духовные связи, мировое древо.	Аннотация: В статье впервые рассматриваются мифологические воззрения древних узбекских и английских народов относительно доминантных образов и их художественной интерпретации в мифов и художественных произведений. В работе рассматриваются происхождение, источники и эволюция доминантных мифологических образов, а также выявляются сходства и различия между узбекскими и английскими источниками.
--	--

Kirish. Mifologiya har qanday millatning eng qadimiy va chuqur dunyoqarashini, tabiat hodisalarini tushunish yo'llarini, yaxshilik va yovuzlik o'rtasidagi abadiy kurashni, inson va g'ayritabiiy olam o'rtasidagi munosabatlarni aks ettiruvchi eng muhim madaniy merosdir. Qiyosiy mifologiya tadqiqotlari turli xalqlarning mifologik tizimlarini solishtirish orqali ularning umumiy ildizlari, tarixiy aloqalari, migratsiya yo'llari, madaniy almashinuvlar va o'ziga xos milliy xususiyatlarini aniqlash imkonini beradi. O'zbek va ingliz (sakson-ingliz) mifologiyalari geografik jihatdan bir-biridan ancha uzoqda joylashgan bo'lsa-da, ularning dominant obrazlari va mifologik modellari o'rtasida sezilarli o'xshashliklar mavjudligi ko'plab olimlar tomonidan qayd etilgan. Bu o'xshashliklar nafaqat umuminsoniy arxaik tasavvurlarning umumiy tabiati bilan, balki qadimgi hind-yevropa va turkiy xalqlar o'rtasidagi uzoq muddatli madaniy aloqalar, migratsiyalar, savdo yo'llari va harbiy yurishlar natijasida ham izohlanadi.

Ingliz-sakson mifologiyasida asosiy dominant obrazlar — Voden (Odin), Tor (Þunor), Loki va Freyja kabi aslar (æsir) panteoni bo'lib, ular shimoliy Yevropa (germano-skandinav) mifologiyasining inglizcha varianti sifatida VII–VIII asrlarda Britaniya orollariga ko'chmanchi qabilalar tomonidan olib kelingan. Bu obrazlar nasroniylik qabul qilingunga qadar hukmron bo'lib, keyinchalik folklor, toponimlar (masalan, Wednesday — Woden's day) va adabiyotda izchil saqlanib qolgan.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. Angelologik yoki demonologik obrazlar tizimi o'z ildizlarini qadimgi odamlarning animistik, totemistik yoki fetishistik qarashlari, olamning

yaratilishi, hayotning davomiyligi, yaxshilik va yomonlik ahamiyati, olamning tugashi, oxirzamon va o'limdan keyingi hayot haqidagi tushunchalari zaminida yaratilgan.

Qadim odamlar ongida butun dunyo nisbatan ikki qismga: muqaddas (sakral) va real (dunyoviy) olamlarga bo'lingan. Ba'zi hayvon va o'simliklar g'ayritabiiy kuchlarga ega deb bilinib, ularning magik kuchidan foydalanishga harakat qilingan yoki aksincha, qudratli hayvonlarning insonlar kundalik hayotiga aralashishlaridan qo'rqishgan. Insoniyat jamiyati diniy e'tiqodlar ta'sirida rivojlanishi bilan birga hayvonot va o'simlik dunyosining turli vakillariga nisbatan munosabati ham o'zgarib borgan.

Ingliz va o'zbek folklori, shuningdek, mifologiyasida bosh dominant tushuncha, ezgulik timsoli, albatta, borliqning Yaratuvchisidir. O'tmishda o'zbeklar ajdodlari uni Tangri, inglizlar God deyishgan, islomda Alloh, qadimgi fors tilida esa Xudo deb atalgan. Ayrim yirik diniy-falsafiy ta'limotlarda, jumladan, buddaviylikda, Dao ta'limotida bevosita konkret Yaratuvchi timsoli bo'lmasa-da, biroq e'tiqod qilinuvchi umumiy tushuncha mavjud bo'lib, uning borligini idrok etuvchi, fahmlovchi va unga tavakkal qiluvchilar ham bor.

Adabiyotshunos olim M. S. Ivanovning fikricha, "Xudo – yuqori mifologiyaning bosh personaji. Qudratli, g'ayritabiiy oliy mavjudot... Oddiy odamlarnikidan kattaroq qobiliyatlarga ega, ammo odamlar bilan ijobiy yoki salbiy munosabatda bo'lib, ularni oddiy hayotdan tashqari tafakkurning yangi darajalariga olib chiqadi"[1: 565—566].

Ingliz-sakson xalqlarining nasroniylilikdan oldingi mahalliy e'tiqodlar davri milodiy V — VIII asrlarga to'g'ri keladi. Teologik tushunchalar dastlab Shimoliy Yevropada vujudga kelgan va erta temir davri (temirchilik sanoati rivojlanishni boshlagan davr) e'tiqodlari zahirida paydo bo'lgan. Diniy qarashlar V asrning o'rtalarida Britaniya orollariga ingliz-sakson ko'chmanchi qabilalari tomonidan olib kelingan va nasroniylilik dini qabul qilingunga qadar hukmronlik qilgan. Mazkur politeistik e'tiqodlarning ko'p jihatlari mahalliy folklorning asosini tashkil etgan.

Ingliz tilida haftaning uchinchi kuni, chorshanbaning nomi — "Wednesday" deb ataladi. Bu kalima qadimgi inglizcha so'z "Wōdnesdæg", ya'ni, to'g'ridan to'g'ri "Day of Woden" yoki "Voden kuni" deb tarjima qilinadi. "WōDen" — ingliz mifologiyasidagi eng mashhur va qudratli xudoning nomi bo'lib, u skandinav hukmdori Odinning fonetik o'zgarishga yuz tutgan inglizcha variantidir.

Dinshunos va madaniyatshunos olim Sharlotta Behr (Charlotte Behr) mifologik xudo Voden kultining hukmron sulolalarning nasl-nasablik rolini belgilashdagi o'rni nasroniylilik dini qabul qilinishidan oldin ancha mashhur bo'lganligi va amalda to'liq qo'llanilganligini alohida ta'kidlaydi[2: 29]. Avliyo Bede milodiy 731 — yilda yozgan «Ingliz xalqlarining cherkov tarixi» asarida Kent podshohligining qiroli Etelberxt (Ethelbert, 552 — 616) nasabnomasi keltirilgan, unga ko'ra Etelberxt V asrda Britaniyaga bostirib kelgan qadimgi engl (qad. ingl. Ængle), saks va

yutlarning yo‘lboshchisi bo‘lgan inglizlarning yarim afsonaviy ajdodi Xengest (qad. ingl. Hengest — «ayg‘ir»)ning avlodi bo‘lgan, Xengest esa o‘z navbatida Vodenga avlod bo‘lganligi qayd qilingan. Bede shuningdek, yana ko‘plab boshqa podshohlar ham Voden avlodi ekanligini da’vo qilganliklarini keltirib o‘tgan[3: 151].

Norvegiyalik adabiyotshunos olim va yozuvchi Tur Xeyerdalning lingvistik va arxeologik topilmalari Odin qabilasi Skandinaviya yarim oroliga Azov dengizi quyi qismi hududidan kelganligini asoslaydi. Bu olimning ozarboyjon etnik guruhi skandinavlarining ajdodlari bo‘lgan degan mulohazasi ham mavjud. Keyinchalik Xeyerdalning Odin as(xudo)larning sardori bo‘lganligiga oid nazariyasi Norvegiyaning Evangilist Lyuteran cherkovi dalillangan fakt sifatida tan olgan[4]. Ozarboyjon va Usmonli turklar ajdodlarining bir qismi ham qadimgi O‘zbekiston hududidan ko‘chganligi, turkiy xalqlarning mashhur eposi “Dada Qo‘rqut kitobi” ham aslida Sirdaryo bo‘ylarida yaratilganligini hisobga olsak, Odin bilan bog‘liq syujetlar qadimgi turkiy mifologiya bilan bevosita bog‘langan degan xulosaga sabab bo‘lishi mumkin. “Kichik Edd” asarining muallifi Snorri Sturluson Odinda shomonlik xususiyati bo‘lganligi sababli u kelajakni oldindan ko‘ra bilgan, shuning uchun u shimolga ketish lozimligini bilgan, deya ta’kidlaydi. Odin aslar va vanlardan tarkib topgan o‘z xalqi bilan Asgarddan «dastlab g‘arbga Gardarikka, so‘ngra janubga, Sakslar mamlakatiga yo‘l oldi[5]. Ayrim olimlar fikricha, Gardarik Tanais daryosi atrofi bo‘lgan.

Allohning yoki hindlarning bosh xudosi Vishnuning ko‘plab ismlari bo‘lganidek, qadimgi island manbalarida[6: 253]. keltirilganidek, Voden yoki Odin ham bir qancha ismlarga ega bo‘lgan. Uning ko‘plab nomlari Katta va Kichik Ed asarlarida keltirilgan. “Katta Ed”da xudoning 54 ta ismi[7: 259]. sanab o‘tilgan bo‘lsa, “Kichik Ed”da 50 dan ziyodroq nomi qayd qilingan.

Mifologiyadagi Voden (Woden) yoki Odin avlodlari			
<i>N</i>	<i>Jinsi</i>	<i>nomi</i>	<i>farzandlari</i>
1.	Xotini	Yord (qad.skand.Jörð, «Yer») ma'buda	Tor -chaqmoq xudosi
2.	Xotini	Rind (qad.skand. Rindr) Sharqlik ma'buda	Vali (Boy) -qasos xudosi
3.	Xotini	Grid. Ulkan ma'buda	Vidar –sukunat xudosi
4.	Xotinlari	«To‘qqiz ona»	Keymdall – xudolar va Dunyo Daraxti qo‘riqchisi
5.	Xotini	Gunnxold	Bragi – she’riyat va notiqlik xudosi
6.	Xotini	Gimir singlisi	Tyur – bir qo‘llik oriyat va urush xudosi

Muhokama va natijalar. Shuningdek, Odinning yana 10 dan ortiq farzandlari bo'lib, ularning ko'pchiligi odamlar va turli hukmdor sulolalarining asoschilari hisoblanadi. Bizni qiziqtirgani – ularning orasida Sigi degan Odinning o'g'li xunlarning (gunnlarning-muallif) hoqoni bo'lganligi va u Volsunglarning bosh ajdodi ekanligi. “Volsunglar haqidagi saga” (isl. Volsunga saga) asarida keltirilishicha, Sigi ov vaqtida undan mohirroq bo'lgan qulga g'azab qilib uni o'ldirib qo'yadi. Bundan xavotirga tushgan Sigi otasi Odin yordamida yurtini tashlab, qo'shini bilan birgalikda o'ziga boshqa makon izlab yo'lga tushgan: “Shunday voqealarni o'z boshidan o'tkazib, nihoyat, u o'ziga yer va mulk qilib, amirzoda kelinga uylangan, qudratli hoqon (manbada konung) va ulug' inson sifatida xunlar yerida hukmronlik qilib, buyuk jangchi nomi bilan mashhur bo'lgan. Xotinidan Reri degan bir o'g'il ko'rgan... Yillar o'tib Sigi qaridi. Uning ko'plab hasadchilari bor edi, uning ishongan eng yaqin odamlari: qaynog'alari til biriktirishdi. Kutilmaganda ular ko'p sonli odamlari bilan Sigiga tashlanishdi, Sigi barcha yaqinlari bilan halok bo'ldi”[8]. Sigining o'g'li Reri qo'shin yig'ib, xiyonatchi qarindoshlari va tog'alarini jazolaydi. O'zi esa xunlar taxtiga o'tiradi. Xunlarning turkiy xalqlarga aloqasi borligi haqida ko'plab manbalarda ma'lumotlar berilgan. Jumladan, folklorshunos va tarixchi Sergey Solovyevning keltirishicha: “Jozef de Gin birinchilardan bo'lib xunlar kelib chiqishi jihatidan turkiylar yoki turkiylarning ajdodlari bo'lishi mumkin degan fikrni olg'a surgan. Ingliz olimi Piter Xizer fikricha, xunlar Yevropaga yopirilib kelgan turkiylarning “birinchi guruhi” bo'lgan”[9].

Sigining xunlar yeriga kelishi, egallashi va yurishlarini skiflarning (saklarning) 247 — 271 — yillar orasida boshqa xalqlar bilan olib borgan janglari va qilgan harbiy yurishlarining badiiy talqinlari bo'lishi mumkin.

Hukmdor bo'lgan Reri chiroyli bir qizga uylanadi, birgalikda bir necha yil yashashsa-da, farzand ko'rishmaydi. Farzandsizlik oqibatini, hokimiyat merosxo'rsiz, valiahdsiz qolishini o'ylagan Sigi va xotini ruhan juda ezilishadi va xudolarga nola qilishadi. Ularning nolalarini xudolar — Sigining o'gay onasi Frigg shuningdek otasi Odin eshitishadi va Sigiga sehrli olma yuborishadi. Sigi va xotini olmani yeyishgandan keyin ayolning bo'yida bo'ladi. Tug'ilgan bolaga Volsung (qad.skand. Volsungr) deb ism qo'yishadi. Volsung voyaga yetib, ulg'aygach o'ylanadi. Birinchi farzandlari egiz bo'lib, o'g'il bolaning ismi Sigmund, qizniki Signyu bo'ladi... Ayrim tarixchilarning fikricha, xunlarning mashhur yetakchisi Atilla shu sulolaga mansub[9].

O'zbek xalq eposi – “Alpomish” dostonidagi ayrim epizodlar yuqorida keltirilgan “Volsunglar haqidagi saga”[8] dagi voqealar bayoniga o'xshab ketadi. Asar qahramonlaridan hukmron sulolaga mansub bo'lgan aka-uka Boybo'ri bilan Boysari ham dastlab farzandsizlikdan aziyat chekishadi. To'y-marakalarda ularning farzandsizliklari «Bu to'y o'g'illining o'g'lidan qaytadi, qizlining qizidan qaytadi, senlarning nimangdan qaytadi?» tarzida odamlar tomonidan yuzlariga solinadi. Aka-ukaning qirq kun Shohimardon pir orqali Xudoga nola qilishlari o'z

samarasini beradi. Ovoz keladi: «Boybo‘ri, senga Xudoyim bir o‘g‘il, bir qiz berdi. Yolg‘iz emas, egiz berdi; Boysari, senga Xudoyim bir qiz berdi, egiz emas, yolg‘iz berdi». Volsung Xudoga nolib Sigmund bilan Signyu ismli egizak farzandlarni ko‘rgandek, Boybo‘ri ham shu tariqa Alpomish bilan Qaldirg‘ochni Xudodan tilab oladi.

Odinning yaqin yo‘ldoshlari — Xugin i Munin («fikrlovchi» i «esda saqllovchi») nomli qarg‘alar, Geri va Freki («qizg‘anchiq» va «yeb to‘ymas») deb ataluvchi bo‘rilar, sakkiz oyoqli Sleypnir (Sleipnir, «sirg‘aluvchi») nomli oti. E‘tiborga loyiq jihat shundaki, bo‘ri, ot va qarg‘a turkiy xalqlarning totem jonivorlari bo‘lishgan. Odinning quroli — hech qachon nishondan adashmaydigan, har kimga tegsa o‘ldiradigan gungnir nomli nayzasi edi.

Vodendan farqli ravishda Odin bir ko‘zlidir. U bir ko‘zini aqli va bilimini oshirish uchun donolik bo‘log‘ining qo‘riqchisi bo‘lgan ulkan Mimirga sovg‘a qilgan. Odin maqsadiga erishish uchun har qanday azoblarga ham tayyor. Jumladan, u run yozuvlarining qudratli kuchiga ega bo‘lish uchun o‘zini o‘z nayzasiga sanchib, to‘qqiz dunyoni birlashtirib o‘sadigan ulkan daraxt Iggdrasilga to‘qqiz kecha-yu to‘qqiz kunduz osib qo‘yadi.

Iggdrasil (qad.isl. Yggdrasill)— koinotning o‘rtasida joylashgan bo‘lib, barcha to‘qqiz olamlarni birlashtirib turuvchi juda ulkan daraxt[6: 253]. Xuddi shunday daraxt turkiy mifologiyada ham bor bo‘lib, u yer osti, yer usti va osmon saltanatini birlashtiradigan ulkan Boyterakdir.

Iggdrasil daraxti haqidagi ma‘lumot biz yuqorida keltirib o‘tgan asarlar: XIII asrning ikkinchi yarmida yaratilgan va muallifi sifatida Dono Semund (isl. Sæmundr fróði Sigfússon; 1056—1133) tahmin qilinadigan xudolar va qahramonlar haqidagi “Katta Edda” (qad.isl. Edda) va O‘rta asrlar island yozuvchisi Snorri Sturluson tomonidan 1222—1225 yillarda irod qilingan “Kichik Edda” (isl. Snorra Edda) qo‘shiqslarning to‘plamida keltirigan. Iggdrasil daraxti uch ulkan ildiz ustida o‘sgan bo‘lib, uning shoxlari turli olamlar bo‘ylab yoyilib ketgan. Ushbu tomirlarning yonida Mimir bulog‘i (qad.skand. Mímisbrunnr) va Urd bulog‘i (qad. skand. Urðarbrunnr) oqib turadi. Bu buloqning yonida esa odamlar va xudolarning taqdirini belgilaydigan uch sehrar ayol Nornlar yashaydilar. Bu uch ayolning nomlari quyidagicha:

Urd — O‘tmish yoki Taqdirni anglatadi.

Verdandi — Hozirgi zamon yoki Tiklanishni anglatadi

Skuld — Kelajak yoki Tegishlini bildiradi.

Shunga o‘xshash syujet qadimgi turkiy xalqlar mifologiyasida ham bor. Bunga ko‘ra, olamlar kesishmasida dunyo daryosi oqadi. Uning qirg‘og‘ida esa yerni ildizlari bilan mustahkam ushlagan va ulkan shoxlari bilan osmonni tutib turadigan Boyterak daraxti ildiz otgan. Bu dunyo daraxtining tomirlari yer osti saltanatida, tanasi yer yuzida, ustidagi yashil va qudratli shoxlari esa samoviy olamda joylashgan.

Mifda keltirilgan uch qavatli dunyo modeli sof turkiy mifologik tushuncha bo'lib, unga ko'ra butun olam qurilishi uch qavatdan tarkib topgan: 1. Ko'k Tangri va uning mulozimlari turadigan Ko'k ochun (Islomda Arshi A'lo, grek mifologiyasida Zevs va xudolar yashaydigan Olimp tog'i). 2. Yer va undagi insonlar, o'simlik va jonivorlar dunyosi. 3. Erlikxon va uning bolalari egalik qiladigan yer osti olami.

Boyterakning tanasi - yer o'qi: gunohkor zamin va muqaddas ko'kni bog'laydigan vertikal ko'prik ekanligiga ishonilgan. Eng munosib donishmand oqsoqollar Boyterakning tanasi bo'ylab osmonga ko'tarilishgan va samoviy suhbatlardan bahramand bo'lishgan. Vahiylarni olgan kayvoniy bobolar daraxt magistrali bilan ortga qaytib, yer yuzida yashayotgan odamlarga ilohiy bilimlarni yetkazishgan. Gunohkor odamlar ham shu ishni qilib, ko'kka ko'tarilmoqchi bo'lganida, daraxtning ustida yashaydigan Samruq (ehtimol Semurg') qushi ularning yomonliklarini aniqlab, ortiga qaytarib yuborar ekan. Hozirda Qozog'iston boshkenti – Ostonaning markazida Boyterakning ulkan haykali qad rostlagan.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, ingliz va o'zbek mifologiyasidagi dominant personajlarning qiyosiy tahlili ularning ildizi juda yaqinligini ko'rsatadi. Har ikki xalq yaratgan miflarning bosh g'oyasi Yaratuvchi va oliy kuch timsollarini markazga qo'yish orqali yaxshilik va yovuzlik o'rtasidagi abadiy kurash jarayonini tasvirlaydi. Ingliz mifologiyasida Voden (Odin) birinchi darajali va kuchli xudo sifatida namoyon bo'lsa, o'zbek mifologiyasida Tangri (islomiy dunyoqarashda esa Alloh) oliy ong va oliy mavjudot – Yaratuvchi sifatida talqin etiladi.

Qadim ingliz mifologiyasidagi Voden obrazining nasl-nasab orqali hokimiyatga bog'lanishi, uning o'g'illari va ularning jamiyatdagi roli, o'z navbatida o'zbek xalq eposlaridagi shunga o'xshash personajlar — Alpomish, Boybo'ri, Boysari obrazlari bilan g'oyaviy jihatdan ancha yaqinlik kasb etadi. Asarlar g'oyasida ham juda ko'p o'xshashliklar ko'zga tashlanadi. Ayniqsa, “Volsunglar haqida saga” bilan “Alpomish” dostoni o'rtasidagi farzandsizlik, iltijolar, Tangrining yordami bilan egizak farzandlar dunyoga kelishi kabi o'xshash syujetlar turkiy va ingliz miflari, epos va dostonlari o'rtasida ming-ming yillarga borib taqaladigan qadimiy ildizlar, umumiy madaniyat, mifik qatlam, urf-odat va an'analar mavjudligidan dalolat beradi.

Shuningdek, inglizlarning Iggdrasil — “dunyo daraxti” timsoli bilan turkiy xalqlarning Boyterak daraxti obrazlaridagi o'xshashliklar ham ikki xalq mifologiyasidagi tasavvurlarning o'zaro uyg'unligini ko'rsatadi. Bu esa, bugungi inglizlar va turkiy xalqlarning ajdodlari orasida necha ming yillar muqaddam madaniyatlar almashinuvi sodir bo'lganini ko'ramiz. Buning natijasida ikki xalq o'rtasida inson tafakkurining arxaik qatlamlarining o'xshash mifik modellari shakllanganini anglatadi.

Maqolada keltirib o'tilgan barcha qiyosiy tahlillar ikki xalq – ingliz va o'zbek mifologiyasidagi dominant obrazlar faqatgina diniy-falsafiy tomonlardan emas, balki tarixiy,

madaniy va antropologik jihatdan ham bir-biriga yaqin ekani, ular orasidagi o'xshashlik va tafovutlar orqali bu xalqlarning qadimiy dunyoqarashi, ijtimoiy tuzumi va ma'naviy qadriyatlarini o'zida aks ettirganini ko'ramiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Иванов М. С. Божество // Православная энциклопедия. — М., 2002. — Т. В: Бессонов — Бонвеч. — С. 565—566.
2. Charlotte Behr 'The origins of kingship in early medieval Kent.' in Early Medieval Europe, vol.9, (Blackwell Publishers Ltd: 2000), p.29.
3. Bede, Ecclesiastical History of the English People, Colgrave, Bertram, Mynors, R.A.B., (eds) (Oxford University Press: 1969), p.151.
4. Захарчук М.Потомок викингов. Столетие (интернет-газета Фонда исторической перспективы) (8 апреля 2012). Дата обращения: 10 июля 2024.
5. Снорри Стурлусон. Сага об Инглингах. Круг Земной. / А. Я. Гуревич, Ю. К. Кузьменко, О. А. Смирницкая, М. И. Стеблин-Каменский. — М.: Наука, 1980.
6. Стурлусон, С., пер. О.А. Смирницкая и М.И. Стеблин-Каменский. Младшая Эдда / Отв. ред. и авт. примеч. М. И. Стеблин-Каменский. — Москва: Науч.-изд. центр "Ладомир", 1994. — 253 с
7. Mualifi noma'lum., пер. А.И. Корсуна. Старшая Эдда / ед., вступ. ст. и коммент. М. И. Стеблин-Каменского. — Санкт-Петербург: Наука, 2015. — 259 с
8. Völsunga saga. «Корни Иггдрасиля», М., «Терра», 1997 г. https://norse.ulver.com/src/forn/volsunga/ru.html#_ednref1 Дата обращения: 03 август 2025.
9. Соловьев С. Историография. Гунны, Народ, пришедший с Ямала. Атилла, каган гуннов из рода Вельсунгов. Север как прародина <https://pub.wikireading.ru/194164> ата обращения: 12 сентябрь 2025.